

## CHO'LPON ASARLARIDA QARG'ISHLAR LINGVOPOETIKASI

**Aziza Axmedova**

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),  
O'zR FA O'zbek tili, adabiyoti va folklori instituti

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada o'zbek adabiyotining yirik namoyandalaridan biri – Cho'lpon ijodida qarg'ishlarning lingvopoetik xususiyatlari tahlil etiladi. Qarg'ishlar inson ruhiyatidagi keskin hissiy holatlarni ifodalovchi, salbiy niyatga asoslangan nutq birliklari sifatida badiiy matnlarda qanday estetik yuklama bilan qo'llanilishi ko'rsatib berilgan. Muallif Cho'lpon asarlarida uchraydigan qarg'ishlarni uch guruhga bo'lib tasnif qiladi.

**Kalit so'zlar:** qarg'ish, lingvopoetika, badiiy nutq, ekspressivlik, xalq og'zaki ijodi.

**Abstract.** This article analyzes the linguopoetic features of curses in the works of Cholpon, one of the prominent representatives of Uzbek literature. It demonstrates how curses are employed in literary texts as speech units that express intense emotional states in the human psyche, based on negative intentions, and what aesthetic function they serve. The author classifies the curses found in Cholpon's works into three groups.

**Keywords:** curse, linguopoetics, artistic speech, expressiveness, oral folk tradition

Qarg'ishlar “inson, hayvon, o'simlik va narsalarga baxtsizlik va jazo tilaydigan barqaror so'z birikmalari”<sup>1</sup> bo'lib, asosan, ayollar nutqiga xoslanganligi bilan xarakterlanadi. Slavyan folklor an'analarning mifologik jihatini o'rgangan L.N.Vinogradovning fikricha, “qarg'ishlar shunchalik kuchli ifodaga ega nutq janriki, unda ifodalangan fikr faqat tilak mohiyatini o'z ichiga olgan eng qisqa shakl (formula)gacha ixchamlashishi mumkin”<sup>2</sup>.

Olima “qarg'ish” (“proklyatie”) so'zining bir nechta ma'nolarga egaligini qayd etadi: 1. Kimnidir (yoki biror narsani) qoralashning eng keskin shakli bo'lib, to'liq aloqani uzish, qabul qilmaslik, begonalashtirishni anglatadi. 2. Kimgadir (yoki biror narsaga) qaratilgan haqorat, so'kinish, g'azab (yomonlash). 3. Insonni ta'qib qiluvchi yovuz qismat, baxtsizlik”<sup>3</sup>.

<sup>1</sup> Виноградова Л.Н. Мифологический аспект славянской фольклорной традиции. – М.: Индрик, 2016. – С. 288.

<sup>2</sup> Виноградова Л.Н. Ко'rsatilgan asar. – В. 289.

<sup>3</sup> Виноградова Л.Н. Ко'rsatilgan asar. – В. 288.

S.A.Arutyunov, A.R.Bagdasarovlarning ta'kidlashicha, qarg'ishlarda biror bir kimsaga nisbatan yomonlikni istash, uning boshiga turli kulfatlar yog'ilishi, boshi g'am-tashvishdan chiqmasligi, xavf-xatarga uchrashi kabilar tilanadi<sup>4</sup>.

Y.Y.Samoylova ham qarg'ishlar haqida shunga yaqin xulosani bayon qilgan. Uning fikricha, qarg'ish janri muayyan ruhiy holatdagi kishining boshqa bir insonga nisbatan yomon niyatini tilda aks ettirishini ta'kidlaydi. Uning fikricha, qarg'ishlarga sog'liq, farovonlik, baxt-saodat, ba'zan esa hayotning o'ziga tahdid soluvchi istaklar singdiriladi<sup>5</sup>.

Y.Besolova ham qarg'ishlarning birovga qaratilishi va yovuz niyatni anglatishini ta'kidlaydi. Shu bilan birga, tadqiqotchi osetin tilida qarg'ishlarning quyidagi modellarda hosil qilinishini ko'rsatadi: "Seni + yo'naltirilgan yovuzlik ifodasi + adresatga qarg'ish ta'sirini ko'rsatuvchi fe'l", "Sen + fe'l (o'lgin, g'oyib bo'lgin, bankrot bo'lgin, yolg'iz qolgin)<sup>6</sup>.

Anglashiladiki, qarg'ishlar insonning boshqa bir insonga yoki narsa-predmetga nisbatan keskin salbiy munosabatini aks ettiruvchi yovuz tilak xarakteridagi barqaror birliklardir.

O'zbek folklorshunosligida M.Murodov qarg'ishlarni biror bir kishiga o'lim tilash, yomonlik tilash, qalbini jarohatlash, muhtojlik tilash kabi turlarga bo'lib o'rgangan<sup>7</sup>. B.Sarimsoqov qarg'ishlarni jonsiz predmetlar bilan bog'liq qarg'ishlar, kishiga o'lim tilash, kishining biror a'zosiga zarar yetkazishni tilash xarakteridagi qarg'ishlar kabi turlarga ajratgan<sup>8</sup>.

F.Eshbayeva o'zbek xalq qarg'ishlarining janr xususiyatlarini tadqiq qilish bilan birga badiiyatini ham ochib bergan. Tadqiqotchi qarg'ishlarning genetik ildizlari va badiiy qurilishini tadqiq qilish asnosida uning so'kish, olqish, qasam, afsun-duo, yig'i va boshqa janrlardan farqli jihatlarini ko'rsatib bergan. U o'zbek xalq qarg'ishlari grammatik jihatidan quyidagi ikki asosiy ko'rinishga egaligi va asosan, kelasi zamonda shakllanishini misollar asosida dalillagan:

**1. To'liq gap shaklidagi qarg'ishlar.** Masalan: *"Iloyo, meni qarg'agan tillaring uzilib tushsin"* yoki *"U dunyoyu bu dunyo kosang oqarmasin"*.

**2. To'liqsiz gap shaklidagi qarg'ishlar.** Masalan: *"Oqpadar"*, *"Yashamagur"* va hokazo<sup>9</sup>.

<sup>4</sup> Арутюнов С.А., Багдасаров А.Р. Язык – культура – этнос. – М., 1994. – С.123.

<sup>5</sup> Самойлова Е.Е. Проклятия как форма конвенционального поведения // <https://www.ruthenia.ru/folklore/samoylova3.htm>

<sup>6</sup> Бесолова Е. Об особенностях ритуала и текста осетинских бранных формул и проклятий // [www.gusaba.ru/cntnt/festshrift/besolova.html](http://www.gusaba.ru/cntnt/festshrift/besolova.html)

<sup>7</sup> Муродов М. Қарғиш ва олқиш // Сарчашмадан томчилар. – Тошкент: Фафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1984. – Б.130-131.

<sup>8</sup> Саримсоқов Б. Олқишлар ва қарғишлар // Ўзбек фольклори очерклари. Уч жилдлик. 1-жилд. – Тошкент: Фан, 1988. – Б. 149-150.

<sup>9</sup> Эшбаева Ф. Ўзбек халқ қарғишларининг жанр хусусиятлари ва бадийати: Филол. фан. номз. ... дисс. – Тошкент, 2008. – 178 б.

Qarg'ishlar folklor janri bo'lsa-da, tilshunoslik aspektida ham o'rganilgan. Jumladan, Z.M.Aliyeva chamalin tilida ijobiy tilak bildiruvchi birliklar va qarg'ishlarning struktur-semantik xususiyatlarini tadqiq etadi. Olima ayrim kishilar qarg'ishlarni g'oyat sirli narsa, sehrning oqibati, afsunlarning ta'siri yoki zarar **yetkazish** deb hisoblashga odatlanib qolganligini, xalq e'tiqodiga ko'ra, qarg'ish etti avlodgacha ta'sir qilishini ta'kidlaydi. Uning natijasi sifatida hayotdagi fojiali voqealar, turmush qurolmaslik, bepushtlik, oilada majruh farzandlar tug'ilishi, chaqaloqlar o'limi, kasalliklar va boshqa ko'ngilsizliklar keltirib chiqishini yozadi<sup>10</sup>.

Ammo o'zbek tilshunosligida ushbu janrga xos birliklar semantik-struktur, pragmatik, lingvopoetik aspektlarda jiddiy o'rganilishi lozim.

Badiiy adabiyotda qarg'ishlar asar ta'sirchanligini oshirishda, personajlarning ruhiyatini ochib berishda ko'p foydalanish holatlari kuzatiladi. B.Sarimsoqov ta'kidlaganidek, qarg'ishlar yaxlit lingvopoetik tizimga ega, ular muhim maishiy-estetik vazifa bajaradi<sup>11</sup>.

Cho'lpon asarlarida ham personajlar nutqida ishlatilgan har bir qarg'ish muayyan lingvopoetik vazifa bajargan. Adib asarlarida qarg'ishlarning quyidagi turlaridan foydalangan:

1. O'ziga nisbatan qo'llangan qarg'ishlar.
2. O'zga shaxslarga nisbatan qo'llangan qarg'ishlar.
3. Predmetlarga nisbatan qullangan qarg'ishlar.

**1. O'ziga nisbatan qo'llangan qarg'ishlar.** “O'z-o'zini qarg'ash nochor qolganda, yashashdan to'yganda, baxtsizligini his qilganda qo'llanadi. Bunday hollarda ko'pincha o'lim tilovchi qarg'ishlar qo'llanadi”<sup>12</sup>.

Cho'lponning “Kecha va kunduz” romanidan olingan quyidagi parchada qarg'ish konstruksiyasi nutq egasining o'ziga qaratilgan bo'lib, uning moddiy ahvolidan *noroziligini bo'rttirib ko'rsatishga xizmat qilgan*:

*Enaxon... o'z qo'lida munday qudrat yo'qligini o'ylab noumidlikka tushar, bo'g'ilardi... – O'lganim yaxshi mening! – dedi u. – Ko'nguldagidek bir siylay olmasam mehmonlarimni! (“Kecha va kunduz”)*

Yozuvchi roman personaji *Enaxonning* moliyaviy jihatdan ahvoli yomonligidan mehmonga kelgan dugonalarini noz-ne'matlar bilan siylay olmaganidan xafaligi, buning uchun o'lishga ham tayyorligini o'z-o'zini qarg'ishni anglatuvchi *O'lganim yaxshi mening!* analitik folklorizmi yordamida ko'rsatib bergan. Ushbu qarg'ishda *mening* olmoshining jumla oxiriga ko'chirilishi va uning mantiqiy urg'uga ega bo'lishi

<sup>10</sup> Алиева З.М. Структурно-семантическиетипы благопожеланий и проклятий в чамалинском языке // Litera. 2020. – № 2 // URL: [https://nbpublish.com/library\\_readarticle.php?id=29278](https://nbpublish.com/library_readarticle.php?id=29278)

<sup>11</sup> Саримсоқов Б. Олкишлар ва қарғишлар // Ўзбек фольклори очерклари. Уч жилдлик. 1-жилд. – Тошкент: Фан, 1988, –Б. 149-150.

<sup>12</sup> Шарипова Л. XX асрнинг 70-80 йиллари ўзбек шеъротида фольклоризмлар: Филол. фан. номз. ... дисс. – Тошкент, 2008. – Б. 63.

qarg'ish qaratilgan subyektni ajratib ko'rsatishga, ta'kidni oshirishga xizmat qilgan. Bu bilan adib matnning badiiy-estetik quvvatini yanada kuchaytirishga erishgan.

Quyidagi matnda esa muallif qarg'ishni yanada kuchli ifodalash maqsadida qarg'ish konstruksiyasi tarkibida *ming marta* birligini qo'llagan:

– *Voy sho 'rim! Shuncha erkak o 'tirsa-ya! O'lganim ming marta yaxshiroq!* – *So'ngra ovozini pasaytiribroq tirkadi: – Otamning piriday kap-katta sallalik domla o'tiribdilar. Qanday yuzim bilan qarayman?..* (“Kecha va kunduz”)

Adib ushbu o'rinda qarg'ishdan personajining axloqiy fazilati va diniy e'tiqodini namoyish qilishni maqsad qilgan. Matndan ushbu folklorizm olib tashlansa, nutq egasiga xos bu xislatlar yo'qolib, nutqining ta'sir kuchi yo'qoladi.

**2. O'zga shaxslarga nisbatan qo'llangan qarg'ishlar.** Bu tipdagi qarg'ish konstruksiyalari nutq egasining suhbatdoshi yoki biror-bir o'zga shaxsning xatti-harakatlaridan, qilmishlaridan qattiq g'azablenganda, norozi bo'lganda uning baxtsizligi, kulfatga duchor bo'lishi yoki o'lim tilashni ifodalashda qo'llanadi. Cho'lpon o'z asarlarida personajlarining ruhiyati, kayfiyati, g'azabi, noroziligi kabilarni ko'rsatishda qarg'ishning mazkur turidan ham foydalangan. Masalan:

*Bu vaqt eshonning eshigidan ikki yosh yigit chiqdilar.*

– *Ho'h-ho', ko'cha juda qorong'i-ku!*

– *Shuni aytgil-a, osmonda dorig'a ham bitta yulduz topilmaydur!*

– *Yuraber. Bu kecha xuddi eshonbobongning ko'nglidek bo'libdir.*

– *To'g'ri-ya, men qizg'a achinaman, boyaqish kelib-kelib kimniki bo'ldi-ya!..*

– *Nimasini aytasan, otasining uyi kuysun, odam emas ekan!* (“Qor qo'ynida lola”)

*Berilgan matnda Otasining uyi kuysun qarg'ishi eshonga nisbatan aytilgan. Xalq orasida ushbu qarg'ishning Uyi (uying) kuysin varianti keng qo'llanadi. Ammo adib uni otasining uyi kuysun shaklida ishlatish orqali personajining nafratini yanada bo'rttirib ifodalashga muvaffaq bo'lgan. Bu o'rinda qarg'ish nafaqat eshonga, balki uning otasiga ham qaratilganligi bilan kuchli ta'sir quvvatiga ega bo'lgan.*

*Xarakterli jihati, ushbu qarg'ish yosh yigit tomonidan qo'llangan. Adib uning nutqiga qarg'ish konstruksiyasini olib kirish orqali eshonboboning “qilmishi” (yosh qizni nikohiga olishi)dan g'azablanishi, unga bo'lgan kuchli nafratini ko'rsatishga muvaffaq bo'lgan. Natijada matnning bo'yoqdorligi, ta'sirchanligi ortgan.*

*Quyidagi matnda esa asar bosh qahramoni nutqida keltirilgan qarg'ish uning kommunikativ maqsadiga erishishda qo'llagan taktikasini aks ettirgan. Ya'ni nutq egasi o'z maqsadini amalga oshirish uchun qarg'ishdan foydalangan:*

*Otasi shahardan piyoda kelgan edi. Oppoq soqoli bilan ko'z yoshlarini to'kib yig'ladi. “Qizim, – dedi, – meni munaqa sharmanda qiladigan bo'lsang, ilohim, bo'yning tagingda qolsin... Murodingga etmagin.* (“Kecha va kunduz”)

Ushbu parchada ota (Razzoq so'fi)ning o'z qizi Zebini qarg'ishi aks etgan. Ammo asarda qarg'ish konstruksiyasi otaning noilojligi ifodasi sifatida berilgan.

Razzoq so'fi eshonning qistovi bilan qizini mingboshiga to'rtinchi xotin qilib uzatishga majbur, u noiloj ahvolda qolgan. Ota qizini mingboshiga turmushga chiqishga ko'ndirish maqsadida ham qarg'ish birligidan foydalangan. Demak, matnda qarg'ish pragmatik maqsad uchun xizmat qilgan.

Xarakterli jihati, adib matnda qarg'ishlarning *kishilar nutqida uchramaydigan turi (ilohim, bo'yning tagingda qolsin)*dan foydalangan. *Inson bo'yning tagida qolishi tasavvurga sig'maydigan holat. Bu qarg'ish o'linga ishora bo'lib, uni qarg'ishning noodatiy namunasi sifatida baholash mumkin. Mazkur qarg'ishning el orasida Bo'yning uzilib, tagingda qolsin! Bo'yning uzilib, ostingda qolsin! variantlari uchraydi. Adib ushbu folklorizmlarni qisman o'zgartirish asosida (uzilib so'zi ellipsisga uchragan) matnga olib kirgan. Qarg'ish tarkibida ishlatilgan ilohim murojaat birligi nutq egasi ushbu qarg'ishning amalga oshirishini astoydil istashini anglatadi. Anglashiladiki, mazkur qarg'ish ota tomonidan o'z farzandiga nisbatan aytilgan bo'lsa-da, kuchli ta'sir quvvatiga ega. Bu tipdagi qarg'ish matnga lingvopoetik ruh berish bilan birga, Razzoq so'fining xarakterini ochib berishda ham muhim ahamiyat kasb etgan.*

*“Nonushta” hikoyasidan olingan quyidagi parchada ham qarg'ishning ellipsisga uchrashi kuzatiladi: Ming'illag'an tovush keldi. Qaradilar: bir kosada qatiq beti ko'targan Soliha edi. Onasi darrov g'azablashga og'iz ochdi: – Juvon o'lgur qizim, ilohi, yashshamag'ur, qizim! Bitta qatiqning betini olib chiqish uchun shuncha hayalmi? Seni hech odam qilolmadim-da! (“Nonushta”)*

*Ushbu matnda qo'llangan Juvon o'lgur qarg'ishi yosh qizga qaratilgan bo'lib, uning juvon bo'lmay o'lishini tilashni anglatadi. Adib qarg'ish tarkibidan bo'lmay so'zini tushirib qoldirish va uni yosh qizchaga qaratish orqali personaj nutqining ta'sir kuchini oshirishga xizmat qilgan.*

*Matnda personaj nutqida Yashshamag'ur qarg'ishi qo'llangan bo'lib, unda sh tovushi qavatlantirilgan. Natijada qarg'ish bo'rttirilgan, uning ta'sirchanligi ortgan. Bu tipdagi qarg'ishlar Cho'lponning boshqa asarlarida ham kuzatiladi. Masalan:*

*Rashk olovi biroz pasayganda orqa-oldini ham o'ylab ko'radi: “Xo'p, u yashshamagurni haydadi. Yaxshi! Mundan menga nima? Uni haydab menga qaytarmidi? Yana bittani oladi. Men yana etim bo'lub yura beraman. Mayli, o'sha yashshamagur bilan bo'la qolsin!” (“Kecha va kunduz”)*

*“Kecha va kunduz” romanidan olingan ushbu parchada Sultonxonning kundoshi uyiga kelishiga rozi bo'lish holati tasvirlangan bo'lib, uning nafrati yashshamagur qarg'ishidagi sh tovushining takrori – geminatsiya<sup>13</sup> orqali qabariq ifodalangan. Bu esa personajning kuchli hissiyotini takrorlashga xizmat qilgan.*

*Geminatsiya hodisasi quyidagi matnda ham kuzatiladi: “Salom” yo'q, “alik” yo'q, ikki g'ildirakli aravasidan tushar-tushmas qo'lidagi gazetni mingboshiga uzatib*

<sup>13</sup> <https://ru.wikipedia.org/wiki/>

*kular yuz bilan shu so'zlarni aytgan Miryoqub mingboshining ko'ziga shu topda itdan ham xunuk ko'rinib ketgan edi. – Tur-e, afting qursin sening!.. Gazeting boshshingni esin!.. (“Kecha va kunduz”)*

Quyidagi matnda qarg'ishning Cho'lpon uslubiga xos yana bir noan'anaviy turi hosil qilingan: *Shu topda Miryoqub juvonmarg bo'lsaydi. Bir og'iz gap bilan ma'qul maslahatni topib berardi: “Qo'y ham butun, bo'ri ham to'q” bo'lardi. Xotin dardiga qolmay o'lsin, betavfiq!* (“Kecha va kunduz”)

Cho'lpon asarlarida qarg'ishlarni nafaqat bir kishiga, balki bolalarga nisbatan ham qo'llaganligi ham kuzatiladi. Masalan, uning “Xujum” dramasida Eshonning bolalarga bo'lgan nafratini quyidagicha aks ettiradi:

*Eshon. Ilohim, barchangiz juvonmarg bo'ling,  
U dunyoda etmish do'zaxga to'ling.  
Ilohim, gavgangiz jinlarga to'lsin,  
Boshingiz devlarning maskani bo'lsin.*

Ushbu qarg'ish to'rt misradan iborat she'riy parchada jamlangan bo'lib, a- a-b-b tarzida qo'fiyalangan. Avvalo shuni ta'kidlash kerakki, *Ilohim* undalmasining satr boshida takrorlanishi e'tiborni jalb qilish uchun, ta'kidlash ma'nosida qo'llangan. Birinchi va ikkinchi misralardagi *bo'lmoq* va *to'lmoq* fe'llarining II shaxs-son qo'shimchasining ko'plik shakli bo'lgan *-ing* hamda uchinchi va to'rtinchi misralardagi III shaxs-son qo'shimchasining ko'plik shakli bo'lgan *-sin* epiforik takrori hosil qilgan. Ushbu ifodalar matn ta'sirchanligini orttirgan va ohang tugalligini hosil qilgan.

Shuningdek, Eshon birinchi misrada *Ilohim, barchangiz juvonmarg bo'ling* deb ularga bevaqt o'lim tilagan bo'lsa, ikkinchi misrada *U dunyoda etmish do'zaxga to'ling* qarg'ishi orqali etmish do'zaxga tushishini tilaydi. Keyingi misralardagi *Ilohim, gavgangiz jinlarga to'lsin, Boshingiz devlarning maskani bo'lsin* qarg'ishlari matnga yanada sovuq ruh berib, uning ta'sirchanligini oshirgan hamda Eshonning *yovuz xarakterini ochib berishda ham muhim ahamiyat kasb etgan.*

Ma'lumki, qarg'ish ko'pincha bir kishiga qaratiladi. Ammo Cho'lpon asarlarida qarg'ishlarni butun boshli mustabid tuzum vakillariga nisbatan ham qo'llaganligi ham kuzatiladi. Masalan, uning “Xazon” she'rida keltirilgan ikki qarg'ish “*sovuq ellardan muz kiyib kelg'onlar*”, “*mening bog'imdan gullarni terg'onlar*”ga qaratilgan. Vatan ozodligi, yurt erki uchun kurashgan Cho'lpon bu kishilarga bo'lgan nafratini qarg'ishlar orqali quyidagicha aks ettirgan:

*Ey, sovuq ellardan muz kiyib kelg'onlar,  
U qo'pol tushungiz qorlarda yo'q bo'lsin,  
Ey, mening bog'imdan gullarni terg'onlar,  
U qora boshingiz erlarga ko'milsin!* (“Xazon”)

Ushbu she'r parchasida ikki o'rinda qarg'ish konstruksiyasi ishlatilgan. Cho'lpon ular orqali yurtimizni bosib olgan chor hukumatiga nafratini ochiq bayon qilgan. Birinchi *U qo'pol tushungiz qorlarda yo'q bo'lsin* qarg'ish konstruksiyasida

muallif dushmanlari o'z orzusi – “qo‘pol tush”iga erisha olmasliklarini tilagan bo‘lsa, she‘rning keyingi bandida berilgan *U qora boshingiz yerlarga ko‘milsin* qarg‘ishi orqali ularga o‘lim tilagan.

Ikkinchi qarg‘ishda boshga nisbatan *qora* epiteti bejiz ishlatilmagan. Ma‘lumki, qora rangi marhumlar dunyosi, o‘liklar saltanati, qo‘rquv, zulmat, jaholat, yovuzlik, g‘am-anduh rangi sifatida tasavvur qilinadi<sup>14</sup>. Bu holat qarg‘ishga yanada sovuq ruh berib, uning ta‘sirchanligini oshirgan.

Cho‘lponning o‘zga shaxslarga nisbatan qo‘llangan qarg‘ishlari orasida qarg‘ish yo‘naltirilgan subyekt har doim ham aniq bir shaxs tushunchasini anglatmaydi. Masalan, adibning “Kecha va kunduz” asaridan olingan quyidagi parchada qarg‘ish mifologik obraz devga qaratilgan:

*Ko‘ngli o‘lsin, yumshagan vaqtini ko‘rganim yo‘q! Katta-katta xarsangtoshlarni soy bo‘yiga devlar tashlashgan, deydi... Eng kattasini otamning ko‘kragiga tashlab qo‘yib, “mana shu sening ko‘ngling!” deganmikan, yashshamagurlar!*

Ushbu matn tarkibida qo‘llangan *Ko‘ngli o‘lsin, Yashshamagurlar* qarg‘ishlari personaj nutqi (Zebi nutqi)ning estetik ta‘sir kuchini oshirishga, shu bilan birga, nutqini individuallashtirishga xizmat qilgan.

Cho‘lponning o‘zga shaxslarga nisbatan qo‘llangan qarg‘ishlari doim ham bir shaxsga qaratilmaydi. Masalan, adibning “Oydin kechalarda” hikoyasidan olingan quyidagi parchada qarg‘ish uch shaxsga: o‘g‘li Qodirjonga, kelinining otasiga hamda onasiga qaratilgan:

*Mana, kampirning o‘z kelini, uy-joyi, kiyim-kechagi – hamma narsalari tayyor... Novddek kuyov yonida... Yana hech uy-ro‘zg‘or ishini qilmaydi. Mundog‘ yomon qiz bo‘ladimi?*

*Olmay Qodirjon o‘lsun,*

*Bermay otasi,*

*O‘sdirmay onasi!..*

*Shuning uchun bu kun xo‘b adabini berdi, xo‘b yig‘latdi...*

*Yig‘i to‘xtalmag‘ondan so‘ng sekingina o‘rnidan turdi, chuvalashib ketib ko‘rpalar orasida ko‘mulub yotqon lokisini olib to‘g‘rig‘ina boshig‘a soldi-da, so‘ridan tushdi... (“Oydin kechalarda”)*

Ushbu matndagi qarg‘ish tarkibida yashirin takror ham mavjud bo‘lib, ularni anglash kitobxonga yuklatilgan. Z.Yuldashevaning fikricha: “Matnda tez ko‘riladigan, ijroda darhol idrok etiladigan sodda va aniq takrorlar bo‘lganidek, matn strukturasidagi ishtiroki yashirilgan takrorlar ham borki, ularning mavjudligini anglash uchun tinglovchidan yoki kitobxondan biroz tayyorgarlik talab qilinadi. Asardagi bunday

<sup>14</sup> Рўзиева М. Ранглар билан боғлиқ мифологик қарашлар моҳияти // Таълим ва инноватсион тадқиқотлар. – Тошкент, 2022. – № 4. – Б. 41.

takrorlarni idrok etish uchun matn qatlamlari haqida tasavvurga ega bo'lish lozim"<sup>15</sup>. Mazkur parchadagi qarg'ish matnini quyidagicha tiklashimiz mumkin:

*Olmay Qodirjon o'lsun,  
Bermay otasi [o'lsun],  
O'sdirmay onasi [o'lsun]!..*

Demak, yozuvchi hikoya qahramoni qaynonaning kelinidan noroziligini ifodalash uchun qarg'ish uch shaxsga qaratilgan va yashirin takror yordamida ifodalangan. Ushbu qarg'ishda *o'lsun* fe'li tushirib qoldirilgan bo'lib, subyektni ajratib ko'rsatishga, ta'kidni oshirishga xizmat qilgan. Bu bilan adib matnning ohangdorligini ta'minlagan va ekspressivligini oshirgan.

**3. Predmetlarga nisbatan qo'llangan qarg'ishlar.** Cho'lpon asarlarida qarg'ishlar narsa-predmetlarga nisbatan ham ishlatilgan. Bunday holatda ham uning asarlarida qo'llangan qarg'ish konstruksiyalari badiiy nutqning estetikligini ta'minlagan. Masalan, "Paranji" she'rida qarg'ish ayollar paranjisiga qaratilganligi bilan xarakterlidir:

*Hoy qiz!  
Hoy qizga o'xshagan juvon,  
Yur!  
Kim seni o'rasa,  
**Borlig'imni yiqib  
Yerlarga ko'milsin!**  
**Yo'q bo'lsin,  
Yo'q bo'lsin,  
Yo'q bo'lsin**  
**Paranji!** ("Paranji")*

Cho'lpon ayollarning paranjini tashlashi voqeasiga munosabat bildirar ekan, paranjining ayollar hayotidan butunlay yo'q bo'lishi, "yerga ko'milishi"ni tilaydi. Ushbu she'rda qo'llangan *Borlig'imni yiqib Yerlarga ko'milsin! Yo'q bo'lsin, Yo'q bo'lsin, Yo'q bo'lsin Paranji!* qarg'ish konstruksiyalari nafaqat nafrat, g'azab ifodasi uchun xizmat qilgan, balki she'riy matnning ohangdorligini ta'minlagan, ekspressivligini oshirgan.

Adibning "Kecha va kunduz" asaridan olingan quyidagi nutq parchasida ham qarg'ishning predmet tasavvuridagi birlik – hunarga nisbatan ishlatilganligi kuzatiladi:

***Hunar bo'lmay o'lsin!** – deya so'zlandi. – Bolam bechoraning yuzini kun yorug'ida ko'rolmayman!*

Cho'lponning o'z asarlarida badiiy-estetik effektini hosil qilishda qarg'ishlardan foydalanishida yana bir xarakterli jihat ko'zga tashlanadi. Adib qarg'ishni anglatuvchi bunday birliklarga nutq egasining o'z holatidan ruhan ezilishini ko'rsatish vazifasini

<sup>15</sup> Yuldasheva Z. "Xoldorxon" dostonidagi takrorlarning lingvopoetik tadqiqi: Filol. fan. bo'yicha falsafa d-ri (PhD) ... diss. – Toshkent, 2024. – B. 28.

ham yuklaydi. Bu vaziyatda qarg'ishdan predmetga nisbatan nutq egasining nafratini aks ettirish maqsadi ko'zlanganda, u orqali insonning o'z hayotidan noroziligi ham anglashiladi. Masalan:

*Davlati qursin, davlati!.. Enaxonning kelinbibisiga rashkim keladi... Davlat asari yo'q. Ro'zg'orlari zo'rg'a o'tadi. Qo'zichoqday ikki bolasi bor. Eri hamisha yonida... Kundosh alami yo'q...* (“Kecha va kunduz”)

Matndan anglashiladiki, nutq egasini kundoshlik azobi qiynaydi. Adib uning nutqida “*Davlati qursin, davlati!..*” qarg'ish konstruksiyasini qo'llash orqali ruhan ezilishi, o'z ahvoliga kuyunishini ta'sirchan aks ettira olgan.

Cho'lpon asarlarida odam tanasining a'zolari bilan bog'liq qarg'ishlardan ham unumli foydalanadi. Masalan, “Kecha va kunduz” romanida *pehonasi qursin* qarg'ishini qo'llaydi:

*Uvv, – dedi, – qiz bolaning pehonasi qursin! O'zi xohlab erga tega olarmidi?*

“O'zbek tilining izohli lug'ati”da *Peshona* so'zining ma'nolaridan biri quyidagicha izohlangan: “2 ko'chma Diniy tasavvurlarga ko'ra: qismat, taqdir”<sup>16</sup>. Ushbu o'rinda *pehona* so'zi orqali taqdir, qismat nazarda tutilgan. Matndan anglashiladiki, nutq egasini ayollar taqdiridan, erksizligidan norozi ekanligi qiynaydi. Adib uning nutqida *qiz bolaning pehonasi qursin!* qarg'ish konstruksiyasi nafaqat norozilik, erksizlik ifodasi uchun xizmat qilgan, balki matnning ekspressivligini oshirgan.

Cho'lpon *beti qursin* qarg'ishidan ham unumli foydalanadi. Adib qarg'ishni anglatuvchi bunday birliklarga nutq egasining o'z qilmishini yashirish vazifasini yuklaydi:

*Rahima xola. Bekor aytibsiz! Bilamiz xo'p! Yaxshi bilamiz! Sizday oshnolarinikida berkinib qochib yuribdir. Xotirjam bo'ling, topmay qo'ymaymiz. Sho'ro mahkamasidan qochib qutulmaydi! Berkitib yurganlarni ham qora kursiga o'turg'izamiz! Bilib qo'yinglar! Boring!*

*Matxoliq. Qo'ying-ey, beti qursin! Xudo saqlasin, biz unaqa qora odamlarg'a yaqin ham kelmaymiz!* (“Zamona xotini”)

Ushbu matndagi qarg'ish insonning a'zosiga qaratilgan bo'lsa-da, aslida bir shaxsga yo'naltirilgan. F.Eshboyevaning fikricha, ushbu qarg'ish “tilga e'tiborning susayishi tufayli bu qarg'ishlardagi ziyon-zahmat kuchi hozirgi davrda go'yoki yo'qolib, kishini tutmaydigan engil qarg'ish-dashnom tariqasidagi iboraga aylangan. Qarg'ish ma'nosida qo'llanilmay qo'ygan bu aytimlar kishi ruhiyatiga kuchli ta'sir etmaydi, ko'proq o'ylamay ish qiladigan va undan uyalmaydigan bezbet kishilarga nisbatan ishlatiladi”<sup>17</sup>.

<sup>16</sup> O'TIL. – 3-jild. – B. 272.

<sup>17</sup> Эшбаева Ф. Ўзбек халқ қарғишларининг жанр хусусиятлари ва бадиияти: Филол. фан. номз. ... дисс. – Тошкент, 2008. – Б. 76.

Tahlillardan anglashiladiki, Cho'lpon o'z asarlarida personajlari nutqida qarg'ishlarni mahorat bilan qo'llash orqali asarlari matnining emotsional-ekspressivligini, badiiyatini oshirgan.

Cho'lpon ijodidagi qarg'ishlarning qo'llanilishi uning badiiy tafakkuri, til va obraz yaratish mahoratini chuqur namoyon etadi. Qarg'ishlar nafaqat hissiy-psixologik holatlarni ifodalashda, balki voqeaviylikni kuchaytirishda, obrazlar xarakterini yanada chuqurroq ochib berishda samarali vosita bo'lib xizmat qilgan. Ular orqali yozuvchi xalqning hayotiy falsafasini, ijtimoiy-siyosiy muhitga nisbatan munosabatini ham badiiy ifodalay olgan. Cho'lpon asarlarida uchraydigan qarg'ishlar xalq og'zaki ijodi bilan uzviy bog'liq bo'lib, ularning badiiy konnotatsiyasi orqali milliy tilning obrazlilik imkoniyatlari kengaytirilgan. Bu jihatlar adib ijodining milliy ruhda shakllanganligini va o'zbek tilining boy frazeologik qatlamidan ijodiy foydalanilganini isbotlaydi. Shuningdek, qarg'ishlarning lingvopoetik tahlili nafaqat poetik matnning estetik qatlamini ochishga, balki u orqali xalqning dunyoqarashi, axloqiy-me'yoriy qadriyatlari va ijtimoiy pozitsiyasini tushunishga ham xizmat qiladi. Bu esa adabiy tilning funksional va estetik imkoniyatlarini o'rganish nuqtayi nazaridan ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, Cho'lpon asarlaridagi qarg'ishlar badiiy nutqning emotsional-ta'sirchanligini oshirish bilan birga, milliy mentalitet va adabiy an'analar uzviyligini namoyon qiluvchi muhim lingvopoetik birliklardandir. Ularning tadqiqi o'zbek adabiyoti hamda tilshunosligining kesishgan nuqtasida yangi izlanishlar uchun boy material bo'lib xizmat qiladi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Arutyunov S.A., Bagdasarov A.R. *Язык – культура – этнос.* – M.: Nauka, 1994.
2. Alieva Z.M. *Strukturno-semanticheskie tipy blagopojelaniy i proklyatnyy v chamalinskom yazыke // Litera. 2020. – № 2 // URL: [https://nbpublish.com/library\\_readarticle.php?id=29278](https://nbpublish.com/library_readarticle.php?id=29278)*
3. Vinogradova L.N. *Mifologicheskiy aspekt slavyanskoy folklornoy traditsii.* – M.: Indrik, 2016.
4. Murodov M. *Qarg'ish va olqish // Sarchashmadan tomchilar.* – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1984.
5. Ro'zieva M. *Ranglar bilan bog'liq mifologik qarashlar mohiyati // Ta'lim va innovasion tadqiqotlar.* – Toshkent, 2022. – № 4.
6. Samoylova Ye.E. *Proklyatiya kak forma konvensionalnogo povedeniya // <https://www.ruthenia.ru/folklore/> samoylova3.htm*
7. [Sarimsoqov B. Olqishlar va qarg'ishlar // O'zbek folklori ocherklari. Uch jildlik. 1-jild. – Toshkent: Fan, 1988.](#)
8. Sharipova L. *XX asrning 70-80 yillari o'zbek she'riyatida folklorizmlar: Filol. fan. nomz. ... diss.* – Toshkent, 2008.

9. Eshbaeva F. O'zbek xalq qarg'ishlarining janr xususiyatlari va badiiyati: Filol. fan. nomz. ... diss. – Toshkent, 2008.
10. Yuldasheva Z. “Xoldorxon” dostonidagi takrorlarning lingvopoetik tadqiqi: Filol. fan. bo'yicha falsafa d-ri (PhD) ... diss. – Toshkent, 2024